



MAVLAVIYLARNING RAQSU SAMO' YIG'INLARI TARIXI

(Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" va
Radiy Fishning "Jaloliddin Rumiy" asarlari
ma'lumotlari asosida)

Qorayev Sherxon Po'latxonovich,
*Xalqaro innovatsion universitet dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*



HISTORY OF THE MAWLAWI DANCES AND SAMU GATHERINGS.

(Based on information from Alisher Navoi's
"Nasoyim ul-muhabbat" and Radiy Fish's
"Jaloliddin Rumi")

Karayev Sherkhon Pulatkhonovich,
*Associate Professor of the International Innovation
University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological
Sciences*



E-mail: sherxonqoraev@gmail.com

Orcid: 0009-0009-0463-1663

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17153853>

ИСТОРИЯ ТАНЦЕВ И СБОРОВ МАВЛАВИДОВ

(На основе работ "Насойим ул-мухаббат"
Алишера Навои и "Джалалиддин Руми" Ради
Фиша)

Караев Шерхон Пулатханович,
*доцент Международного инновационного
университета, доктор философии (PhD) по
филологическим наукам*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola o'rta asrlar Sharqidagi so'fiylik tariqatlari, xususan, mavlaviylik tariqatida o'tkazilgan Samo' yig'inlari tarixi va mazmun-mohiyatiga bag'ishlanadi.

Samo' so'zining ma'nosi, bu marosimning kelib chiqishi, uzoq o'tmishi, mavlaviylik tariqati asoschisi Mavlono Jaloliddin Rumiy hayotida tutgan o'rni Alisher Navoiy asarlari hamda Radiy Fishning "Jaloliddin Rumiy" tarixiy romani ma'lumotlari asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: So'fiyona raqs, zikri jahriya, sukra, vajd, oshiqalar.

Аннотация: Данная научная статья посвящена истории и сущности собраний Само, проводимых в восточных странах суфийского ордена, в частности, в ордена Мавлави.

Значение слова Само, происхождение этого обряда, его долгая история и место в жизни основателя ордена Мавлави, Мавлана Джалалуддина Руми, обсуждаются на основе произведений Алишера Навои и исторического романа "Джалалуддин Руми" Ради Фиса.

Ключевые слова: Суфийский танец, захирья, сукра, продолж, асики.

Abstract: This scientific article is devoted to the history and essence of the Samo' gatherings held in the Eastern countries of the Sufi order, in particular, in the Mavlavi order.

The meaning of the word Samo', the origin of this ceremony, its long history, and its place in the life of the founder of the Mavlavi order, Mawlana Jalaluddin Rumi, are discussed based on the works of Alisher Navoi and the historical novel "Jalaluddin Rumi" by Radiy Fish.



Keywords: *Sufi dance, zahriyya, sukra, vazhd, asiklar.*

KIRISH VA DOLZARBLIGI

O‘rta asrlar Sharq mamlakatlaridagi ayrim so‘fiylik tariqatlarida **Raqsu samo‘ yig‘inlari** o‘tkazilgan. Bir so‘z bilan aytganda, bunday yig‘inlarda darveshlar raqsga tushib, musiqa og‘ushida zikr aytishgan, turli she‘rlarni ohang bilan o‘qishgan, qo‘shiqalar kuylashgan. Tasavvufshunos Najmiddin Komilovning yozishicha, *“tasavvuf o‘z musiqasi, tasviriy san‘ati, raqs san‘atini ham yaratdi va hatto so‘fiyona teatrlar paydo bo‘ldi. Birgina samo‘ning o‘zida ham she‘riyat, ham raqs, ham qo‘shiq, ham musiqa ishtirok etadi. Ko‘pgina samo‘ majlislari teatrlashgan tomoshaga aylanar edi, faqat so‘fiylarning o‘zi emas, atrof-javonibdagi kishilar ham bu tomoshalarni yig‘ilishib ko‘rganlar [7, 156]”*. Diniy g‘azallar o‘qib, islom dinini targ‘ib qiluvchi qalandarlar zikru samo‘ orqali Allohga ruhan yaqinlashib, faqru fano va haqiqatga erishish maqsadida o‘z jismi va qalbini poklashga intilganlar [8, 60].

TADQIQOT VA NATIJALAR

O‘rta Osiyoda vujudga kelgan “Yassaviya tariqatida darvesh, qalandarlar aso – tayoq (xassa)larini baland ko‘tarib, tushirib, ixlos bilan purning Xudoni madh etuvchi, insonlarning osiy (gunohkor) ekanligiga iqror qiluvchi, tavba-tazarru ruhidagi hikmatlarini kuylab, (baland ovozda) zikru jahriyaga tushganlar. Jaloliddin Rumiyning mavlaviya tariqatida xonaqohlarda darveshlarning she‘riy rivoyatlar va musiqa jo‘rligidagi zikri tabora tezlasha borgan va shiddatli tus olgan. Samo‘ vaqtida so‘fiylar Allohning tariqat piriga ato etgan barakotidan ulush-nasiba olganlar va Haqiqat olamiga kirganlar [6, 379]. Binobarin, samo‘ – darvesh uchun Alloh taologa yetishish vositasi sanalgan. “Mahbub ul qulub” asarida Navoiyning yozishicha: *“Suluk ahlig‘a bir maxuf yer bu manzildurkim, anda ham nuqsoni ham kamol hosildur. Solik bu yerda bir muhlik oh bila ham maqsudg‘a yetibdur va bir na‘rai jonkoh bila yillar qozong‘oni ham ilgidin ketibdur.*

(Tasavvuf shayxlari) *Shibliy va Nuriy (quddissa sirrihumo) samo‘da kettilar va bu yo‘l suluki bila maqsud sarmanzilig‘a yettilar. Baso ahlullohki, arg‘anun unidin dayrg‘a kirdi va din va islom naqdin mug‘bachalarga boy berdi [6, 379]”*. Ya‘ni, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning fikricha, bu xatarli manzilda, ya‘ni samo‘ orqali haqiqat ahli - darveshlar kamol topib, murodi hosil bo‘lishi hech gap emas. Binobarin, alloma Aziziddin Nasafiy ham *“samo‘ yig‘inlarida soliklarning ayrimlariga hollar yuzlanadi va bu hollardan ular ko‘p foydalar va kushoyishlar toparlar”* degan. Aslida, Radiy Fish yozganidek, *“Samo‘-safobaxsh anjuman. Ishq –*



muhabbat ila hirsu-havas boshqa-boshqa bo‘lganidek, u ham xalifa (Abbosiy xalifa)ning ermak (bazzm)lariga o‘xshamaydi.

Samo’ – uyg‘onish. Lekin zindonda yotgan mahbus uyg‘onishni istamaydi, uyg‘onish uning bandi zindon ekanini yana bir karra esga soladi [9, 66]”. Imom G‘azzoliy *“samo’ni – poklanish va soflanish jarayoni”* degan: *“Toifai so‘fiylarki, samo’ qilibdurlar, olami g‘aybdan ahvoli latif ro‘y berib, samo’ savobidan kashfi holat voqe’ bo‘libdurki, ani vajd (shavqu zavq holati) atarlar. Dillari samo’da oncha sof bo‘lurki, kumushni o‘tg‘a solg‘ondek. Bu nav samo’ ko‘ngilda Haq taolo do‘stligini ziyoda qilur va hamma quduratlarni zoyil aylar. Chandon riyozat va mashaqqatlar birla hosil bo‘lmagan fayzu futuhot bu nav’ samo’ birla hosil bo‘lur [5, 354]”*.

Aslida *“Samo’”* so‘zi arabcha bo‘lib, *“Eshitish”* ma‘nosini bildiradi. Tasavvufda *“Samo’”* istilohi zikri jahriya (baland ovoqli zikr)ni yoki zikrga oid narsalarni eshitishga nisbatan ishlatilgan. Boshqa manbalarda ham *“samo’ (simo’)-so‘fiylar, darveshlarning zikr majlislarida davra aylanib, jo‘shqinlik bilan raqs tushishlari, ma‘juziy mazmunda – vajd va soliklar holati. Ular zikr paytida Xudo taoloning ismlarini va sifatlarini yod etib, ilohiy zavq holatiga kirganlar [6, 379]”*, deb qayd etilgan. Alisher Navoiy: *Qomusiy lug‘atida yozilishicha, “Samo’ majlisi – tariqat ahlining ibodat turi. Umumiy ma‘noda Haqqa tavajjuhni kuchaytirish va ko‘ngil safosi maqsadida qur‘on oyatlari, hadis, mav‘iza va ilmiy ma‘ruzani tinglash ma‘nosida, tor ma‘noda ilohiy ishq tarannumidan iborat she‘r, qo‘shiq, yo‘hang eshitish tushuniladi [4, 498]”*.

Samo’ majlislari tasavvuf shayxlari rahbarligida xonaqohlarda tashkil etilgan. Binobarin, *“she‘r va musiqaning inson ruhiga ta‘sir etish kuchini sezgan tasavvuf shayxlari xonaqohlaridagi yig‘inlarda bunday foydalanishga intilganlar. Ayniqsa, samo’ yig‘inlarini qizitishda she‘r va musiqa juda qo‘l kelardi. Ma‘lumki, jamoa-toifa bo‘lib yashash, pir-muridlik odobini saqlab, tongotar suhbatlar qurish, ilohiyot asrori haqidagi bahsu-munozaralar musulmon Sharqining butun qadimiy madaniy markazlarida qurilgan ko‘p sonli xonaqoh va zoviyalarda to‘plangan faqru fano ahli hayotining mazmunini belgilardi. Xonaqohlarda samo’ majlislari uyushtirish, she‘r va raqs bazmini tashkil etish odat tusiga kiradi. Xususan, sukra – behudlik konsepsiyasini yoqlagan so‘fiylar bunga o‘ch edilar. Ular: so‘fiy uchun asosiy narsa vujudning borligini unutish, hol maqomini egallashdir, samo’ shu ruhiy ijtihod qiyomini kuchaytiradi, deb hisoblardilar [7,159]”*. Boyazid Bistomiyning mazkur *“sukra”* – bexudlik konsepsiyasiga ko‘ra, *“so‘fiy to o‘zini unutish darajasiga borib yetmasa, ya‘ni ruhiy taraqqiy etib, (she‘r tinglab, raqsga tushib) xalqni, dunyoni butkul esdan chiqarib, Xudo yodida mastu devona bo‘lmasa, foniy bo‘lolmaydi. Shu*



maqsadda “sukra”chilar samo’ majlislari uyushtirganlar, jazavaga tushib, o’zlarini yo’qotib, kiyimlarini yirtib tashlaganlar [7, 106]”. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”dagi “Mug’anniy va mutriblar” zikrida samo’ yig’inlari haqida to’xtalgani bejiz emas. Chunki Jaloliddin Rumiye dek so’fiylar musiqa va qo’shiq sadolari ostida raqsga tushishgan. Darveshlarning zikr majlislarida davra aylanib, jo’shib raqs tushishidan iborat bo’lgan vajd va soliklar holati – samo’ yig’inlari Abulqosim Bag’dodiy fikricha, ikki xil bo’lgan: 1). So’z (Qur’on oyatlari va she’rlar) tinglamoq. 2). Kuy (qo’shiq) tinglamoq. Samo’ning birinchi xilida biror so’z (Qur’on oyatlari, she’rlar) tinglanib, undan ibrat va saboq olingan. Lekin bunday samo’ga faqat poklik va qalb huzuri bilan erishilgan. Ikkinchi xil samo’ga kelsak, tasavvuf tarixining ilk bosqichidayoq musiqa ruhning g’izosi va rizqi sifatida e’tirof etilgan [2, 504]. Tasavvufshunos Najmiddin Komilovning yozishicha, “Tasavvufning samo’ga rujui shubhasiz ijobiy hodisa edi, uning ta’sirida islom dini xush ko’rmagan san’at rivojlandi. So’fiyona bazmlar bag’rida ko’p miqdorda iste’dodli mutrib va mug’anniylar tarbiyalandi, yangi-yangi kuy-ohanglar yaratilib, el orasiga yoyildi. Jumladan, tojik va o’zbek xalqlarining klassik shashmaqomi ham shu zaminda shakllanib, tasavvuf maqomotining holatlarini ifodalaydi [7, 160]”.

Jaloliddin Rumiyning samo’ majlislari Saljuqiylar saltanatida mashhur bo’lgan: “Qozi Sirojiddin esa – ayyor! U ko’p xaloyiq jam bo’lib, musiqiy va tarona bilan kechadigan majlislarni taqiqlab fatvo berishni jon deb istaydi. Ammo, ne qilsinki, bu yerda – Ko’nyoda xaloyiq musiqiy va ash’orni sevadi! Sultonning qudratli noibi Muiniddin Parvona xalq e’tiborini qozonmoq bo’lib, Jaloliddin (Rumiy) uchun majlisi samo’ tuzar, bunday yig’inlarda oliy amaldorlar, hattoki sulton oyimlar ham ishtirok etishardi [9, 60]”. Rus yozuvchisi va sharqshunos Radiy Fishning “Jaloliddin Rumiy” nomli tarixiy-biografik asaridagi samo’ga oid voqealar Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi ma’lumotlar bilan hamohang ravishda tasvirlangan. “Jaloliddin Rumiy”da yozilishicha, “Keyinchalik o’zi (Jaloliddin Rumiy), o’sha xudojo’y o’g’il majlislarda nay va rubob chalib, o’z g’azallarini kuylashni, hattoki raqsga tushishni, o’ltirishda xotinlarning ham ishtirok etib, uni gulga ko’mishlarini (samo’ yig’inlarida) bir odat tusiga kiritdi [9, 57]”.

Mavlaviylik tariqatiga avval shahar aholisining o’rta va quyi qatlamlari, keyinchalik xos tabaqalar ham kirgan. Ular yig’iladigan joylar mavlaviyaxona, takyaxonalar deb atalgan va u yerda zikru samo’ qilishgan. Mavlaviylar boshqa jamoalardan farqli o’laroq, musiqa tinglash, kuylash va gir aylanib zikr tushish marosimlariga alohida e’tibor berishgan. Shuning uchun ham bu tariqatni o’ziga to’q san’atkor va musiqashunoslar ham keng qo’llab-quvvatlagan.



Mavlaviylar fikricha, mutlaq ruh – Ilohning inson qalbidagi zarrasi musiqa ta'sirida, zikr tushish paytida tiniqlashib, poklanadi, ya'ni, o'z-o'ziga yaqinlashadi. Allohga o'z muhabbatini to'laroq ifodalashga yordam beradi. Mavlaviylar "Girdi darveshlar" nomi bilan ham mashhur bo'lganlar [8, 93].

Odatda samo' majlislarida *"Jaloliddin (Rumiy) she'rni ovoz chiqazib o'qirdi. She'rdagi ohang uni beqiyos bir kuch ila o'ziga jalb etardi. Ana shu kuchga u darrov bo'ysina qolmas, dastlab boshini o'ng yelkasiga solintirib, quloq solar, so'ng go'yo unga monelik qilmoqchidek, sekin oyoqqa qalqardi. Keyin etagini bar urib, ilk qadam tashlar va chap qo'lini tikka ko'tarib, bilagidan havoda solintirganicha, turgan yerida asta, gir aylanardi.*

Shu ondayoq uning ruhiy nazari o'ngida abadiy aylanishlar-la koinot hayoti namoyon bo'lar: quyosh atrofida sayyoralar uchar, Yer atrofida yetti qavat osmon charx urardi. Ana shu mavzunlik uning butun vujudini qamrab olardi.

Shunda u o'ng qo'lini ham ko'tarib, raqsga tushib, aylana boshlardi. Avval shoshilmay, keyin tezroq, tobora tezroq aylanar, yer-ko'kni to'ldirgan o'sha jahoniy ohang bilan qo'shilishib, mast-alast bo'lib, to o'zni unutmaguncha, gir-gir aylanaverardi, zero, she'r savti, rubob sadosi o'sha ohangning so'lg'in soylari edi [8, 84-85]".

Mavlaviylikda nega darveshlar aylanib raqsga tushadi, degan savol tug'iladi? *"Nega aynan aylanish? Chunki borliqning asosiy sharti aylanishdir. Elektronlar yadro atrofida 1000 dan 100 000 kmgacha tezlikda aylanadi. Massalari bir-biridan farq qilmaydigan elektronlar turli energiya darajalariga ega va 7 xil orbitalda aylanadi. Elektronning bu tez va cheksiz aylanishi mavjud bo'lgan hamma narsaning mohiyatidir. Koinotdagi hamma narsa bu aylanish tufayli omon qoladi. Yulduzlar, sayyoralar, tanadagi qon, yerdagi hayot, hamma narsa uyg'unlikda aylanadi (Darakchi.uz.)."*

Samo' yig'inlarida ohang jo'rligida so'fiyona she'rlar, asosan Jaloliddin Rumiy g'azallari, ruboiylari o'qilgan. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul "Jaloliddin Rumiy uchun samo' yig'inlari-tiriklikning oromi bo'lgan", deb shunday yozgan: *"Tadqiqotchilarning e'tiroflariga ko'ra, Sharqdagi boshqa mutasavvif shoirlarning ruboiylaridan farqli o'laroq, Rumiyning ko'pchilik ruboiylari samo' majlislarida yaralgan. Samo' esa Rumiy tushunchasida o'ziga xos bir uyg'onish va surur majlisi edi. Shoir uni tiriklikning oromi, jonning joni, deya ta'riflagandi.*

Samo' oromi joni zindagi hast,

Kasi donadki o'ro joni jonast [10, 79]".



Tariqat piri, shoir va mutafakkir Jaloliddin Rumi va uning shogirdlari o'zlarini so'fiylar emas, oshiqlar deb atashgan. Ularga (Allohni) bilish yo'lida karvonboshi – mantiq emas, muhabbat edi.

*Sanamlarga asiru bandalar, men ko'p zamon oshiq,
Cho'mib ishq uyqusiga sarbasar, men ko'p zamon oshiq.
Tiriklik ibtido aylab, bo'lurdi shu jahon paydo,
Azizlar, oshiq erdim onqadar, men ko'p zamon oshiq.
Kam ermas, yetti ming yil suvratimga bo'ldilar mashg'ul,
Yetishdi borlig'imdin bir samar, men ko'p zamon oshiq...
"Men ermasmu siza sarvar?" – deya lab ochdi Ollohim,
Aning irfonidin topdim asar, men ko'p zamon oshiq.
Maloiklar, maorif taxtini ko'kka ravon aylab,
Balandroq silkitingiz bolu par, men ko'p zamon oshiq.*

Albatta, "Jaloliddin (Rumi) uchun sevgi – butun borliqni harakatga keltiruvchi kuch edi..."

Mutlaqqa intilgan Jaloliddin (Rumi) uchun oliy ishq – haqiqat ishq edi...

Oq soqoli ko'ksiga tushgan chol (Jaloliddin Rumi) tun qorong'usini oshiqona g'azallarga to'ldirib, charx urarkan, bu so'fiylar uchun shunchaki nash'ali raqsi samo' emas, balki ishqdan mast-alast bo'lib, olam bilan qo'shilish-qovushish marosimi edi [10, 79]"

Jahon so'z san'atining buyuk siymolaridan biri bo'lmish "Jaloliddin (Rumi) ilgari (Shamsiddin Tabriziy)ni uchratguncha) muridlarga saboq, mo'minlarga fatvo berar, va'z aytar, shogirdlarga pand-nasihati etar, ulamolar bilan bahslashar edi.

Endi esa va'zu duolar she'ru musiqiy bilan oh-faryodlar, raqsu taronalar bilan almashindi. Ilgari u hamisha ma'yus, hamisha boshi egik edi. Endi esa yuzlari yorishib, sevinchu sururga to'lib yurardi. Qo'liga kitob olmas, ularni nay va rubobga almashgan edi. O'gitlar, fatvolar, bahsu munozaralar bari ortda qolgan edi.

U (Jaloliddin Rumi) she'ru musiqani deb, do'sti (Shamsiddin Tabriziy) ishtirok etadigan majlisi samo'ni deb hamma narsadan voz kechdi [9, 192]". Chunonchi, Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da Shayx Bobo Kamol Shams Tabriziyga Rumiye dek musohib uchrashini bashorat qilganini yozgan: "Jaloliddin (Rumi)ni o'z maslakdoshiga aylantirgan Shamsiddin (Tabriziy) uni yangicha yo'lga – o'z ichki dunyosini erkin ifodalash yo'lga boshladi, zero, bu Shamsiddin (Tabriziy)ning ham asl mohiyatini ifoda etardi.

Bu yo'l-majlisi samo' edi. Musiqiy, raqs Jaloliddin (Rumi)ni shunday holatga solardiki, oshufta g'azallar o'z-o'zidan oqib kelaverardi. Shamsiddin Tabriziy uni shoirga aylantirdi [9, 196]". Darakchi.uz. saytidagi "Nega "semazen"larning boshi



aylanmaydi? So‘fiylarning samo‘ raqsi haqida nimalar ma‘lum?” nomli maqolada yozilishicha, bugungi kunda *“samo‘ raqsi Mavlono Jaloliddin Rumiy ilhomi bilan yaratilgan va rivojlangan dunyodagi eng sirli raqs sifatida tanilgan. Mavlonoga esa Shams Tabriziy o‘rgatgandir. Darhaqiqat, chuqurroq qaralsa, bu Mavlaviy darveshlarning zikr marosimidir. Nay kabi nozik cholg‘u asboblari jo‘rligida qo‘llarini ikki tomonga ochib, o‘ng kaftini osmonga, chap kaftini yerga qaratib, Xudodan olib, xalqqa berish kabi tushuniladigan marosim sifatida umumlashtirish mumkin. Bu yerda musiqa mulohaza qilishga yordam beruvchi vositadir.”*

Raqsga tushayotgan girdi darveshlarning kiyimlari ham o‘z ma‘no-mohiyatiga ega: *“Tennure (Oq kiyim) – poklik va nafsning kafani, sikke esa darvesh toji (uzun bosh kiyim), nafsning qabr toshini, qora nimcha esa ruh ramzidir. Quloqlari tangalar bilan yopilgan. Bu esa dunyoni eshitmasdan yolg‘iz Allohga yuzlanishni ifodalaydi.”*

Hozirgi kunda Turkiyada *“samo‘ raqsiga raqs tushuvchi (mavlaviy) darveshlarni “semazen”, samo‘ o‘ynaladigan joyga “samo‘xona” deyiladi. Samo‘xonaning doirasimonligi koinotning timsolidir.*

Nega “semazen”larning boshi aylanmaydi?

Aylanayotgan darveshlar xuddi yerning 23 darajalik burchagi kabi boshlarini 20-25 daraja chapga burishadi. Bu egilish ichki quloqqa ta’sirlarni neytrallashtiradi va bosh aylanishiga olib kelmaydi. Shu bilan birga ular faqat bir nuqtaga, chap qo‘lning bosh barmog‘iga qarashadi. Darveshlar raqs davomida atrofdagi narsalarga ahamiyat bermaydilar, ular hamma narsani tuman holatida ko‘rishadi.

Nay ilohiy nafasni ifodalagani uchun puflanadi. Darveshlar bir vaqtning o‘zida kaftlari bilan yerga urishadi. Bu zarba qiyomat kuni va Sirot ko‘prigini anglatadi. Darveshlarning o‘rnidan turishlari koinot shakllanganidan dalolatdir.

Ko‘rinib turibdiki, bu raqs oddiy ko‘ngilochar raqs emas, balki, har harakatida ilohiy ma‘no yashiringan raqsdir”.

XIII asrda Jaloliddin Rumiy tomonidan asos solingan mavlaviylik sunniy tariqatida darveshlar baland ovoz bilan raqs va musiqa qilib, zikr qilganlari uchun G‘arbda, odatda ularni *“charx urib aylanuvchilar”* yoki raqqos darveshlar deb ham ataganlar.

Ularning tashqi ko‘rinishdagi farqlari darveshlik kulohidir, chunki qalpoq kiyib yurishga odatlanganlar [11, 122].

Jaloliddin Rumiy davridan buyon mavlaviyaning asosiy bayrami Navro‘z bo‘lgan. Juma kunlari mavlaviy so‘fiylar o‘zlari istiqomat qilayotgan xonaqohlarda payg‘ambar va tariqat rahbariga bag‘ishlangan ayni sharif deb ataluvchi ommaviy zikr va samo‘ majlislari tashkil qilganlar [12, 199]. Radiy Fish iborasi bilan aytganda, *“shu-shu Jaloliddin (Rumiy) hech qachon madrasa so‘risiyu masjid minbariga*



chiqmadi. Mushoira va majlisi samo' – u o'z yangi e'tiqodini e'lon etadigan minbar bo'ldi [9, 202]”.

Jaloliddin Rumiylar davrida “Samo'” sulton (saljuqiylar hukmdori) poytaxti Ko'nyoda odat tusini oldi. O'zini izzatlaydigan har bir savdogar, amaldor va bek o'z qo'rg'oni, bog'i, uzumzorida shunday majlislar tuzar, ularda Shams (Shamsiddin Tabriziy) va Mavlono (Jaloliddin Rumiylar) ishtirok etishmasa, izzat nafsiga og'ir olar edi.

Mavlono (Jaloliddin Rumiylar) uchun yangi e'tiqodini ayon etish usuli bo'lmish majlisi samo' ularga mo'g'illar ofatiyu, saljuqiylar davlatining sharmandali zavolini unutishga yordam beruvchi bir ermak edi. Lekin Jaloliddin (Rumiylar) she'rlari uchun bu – ilk bor ochilgan keng maydon edi.

Mavlono gohida Shamsiddin Tabriziy va eng yaqin do'stlariga ham aytishga jur'at etolmagan fikrlarni she'rga solib, samo' majlisida aytardi:

Sening kufring oldida imon nadur?

Samandar oldida chivin jon nadur?

Imon – suvdir, kufr – tuproqdir qaro,

Lekin bari kuldir otashing aro.

Garchi imon – shamdir, kufr – shabiston,

Lekin quyosh chiqqach, deyishar hamon.

“Bizga zarurat yo'q, topaylik barham,

Imon – din otidir. Shundoq bo'lsa ham.

O'shandoq ot oshiqqlarga na hojat,

Ularga ishq aro shu'ladin sur'at [9, 209]”.

“Nasoyim ul-muhabbat” asarida yozilishicha, kunlardan bir kuni shunday voqea ro'y beradiki, zargar Salohiddin (Zarkub) zargarlik do'konidan ham voz kechib, Mavlono Jaloliddin Rumiylarning samo' yig'inlariga qo'shiladi: “Mavlono Jaloliddin Rumiylar zarkublar hovlisidin o'tardi, alarning zarbi unidin alarg'a hol voqe' bo'lubdur va samo'ga kiribdurlar. Shayx Salohiddin (Zarkub) ilhom bila do'kondin sekrib chiqibdilar va boshin alarning oyog'iga qo'yubdur. Va Mavlono hazratlari (Jaloliddin Rumiylar) aning boshin ko'tarib, iltifot va navozish qilib, peshindin namozi digargacha Mavlono hazratlari samo'da ermishlar [1, 363]”.

Bor erdi bunda bir zargar do'koni,

Ko'z ochdi chashmai mehri jahoniy.

Ajab, ma'nosi yuksak, chehrasi pok,

Boqib men komron, sarmast, yaqo chok [9, 229].

Darhaqiqat, “qishning boshlarida zargar Salohiddin (Shayx Salohiddin ibn Faridun Ko'naviy Zarkub) hunarmandlarning o'zga oqsoqollari bilan qo'shilishib,



Mavlono (Jaloliddin Rumiy) va Shamsiddin (Tabriziy)ni majlisi samo'ga taklif qildi. Shoir raqs tushib, badiha aytib, hammani o'z jazavasiga asir etdi. Mashshoqlar holdan toyishib, ketma-ket o'rin almashdilar. Ammo shoir charchamadi. Ruhiyat bazmi surunkasiga ikki kechayu ikki kunduz davom etdi [9, 214-215]”.

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” va Radiy Fishning “Jaloliddin Rumiy” asarlari mavlaviylik tariqati va samo' yig'inlari mohiyatini anglab yetishga ko'maklashadi. Binobarin, mavlaviylarning ushbu samo' yig'inlari mumtoz adabiyot va musiqa san'atini rivojiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. TAT, O'ninchi jild. T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2012.-B.363.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 17-tom. T. Fan, 2001. –B.504.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. T. G'.G'ulom nomidagi ASN, 1983.-B.30.
4. Alisher Navoiy: Qomusiy lug'at. T.:Sharq NMAK BT, 2016.-B.498.
5. Abu Homid G'azzoliy. Kimiyoi saodat. T.Adolat, 2005.-B.354.
6. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: Movarounnahr, 2005.-B.379.
7. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. T.: Yozuvchi, 1996.-B.156.
8. Karimov S. Tasavvuf falsafasi. Samarqand, 2021.-B.60.
9. Fish R. Jaloliddin Rumiy. Tarixiy-biografik roman. T.: G'.G'ulom nomidagi ASN, 1986. –B. 66.
10. Haqqul I. Taqdir va tafakkur. T: Sharq NMAK BT-2007.79-b.
11. Po'latov H. Mamatov M. Tasavvuf tarixidan lavhalar. T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2011.-B.122.
12. Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. M.: Nauka, 1991.-S.199.
13. Qorayev Sh. Samo' yig'inlari // Jahon adabiyoti.-Toshkent, 2020.- № 8. – B.144-147.
14. Qorayev Sh. Tasavvuf shayxlarining raqsu samo' yig'inlari (Alisher Navoiy asarlari asosida)” / “International Scientific Conference Modern Scientific challenges and trends” nomli Xalqaro Polsha konferensiyasi materiallari to'plami. Issue 11 (33), Part 1, Warsaw. Poland, Wydawnistwo Naukowe “iScience”, November 30 th, 2020.-P. 87-92.
15. Qorayev Sh. Temuriylar davri samo' yig'inlari. // Vestnik Tadjikiskiy pedagogicheskiy instituta.-Pendjikent, 2019.-№2.B. 840-844.
16. Qorayev Sh. Ishq ahllariga ohu vovaylo soldi // “Qashqadaryo”, Qarshi, 2020 yil 7 fevral. №010(15650)-son. -B.4-5.
17. Qorayev Sh. Tasavvuf shayxlarining samo' yig'inlari va Alisher Navoiy (Alisher Navoiy asarlari ma'lumotlari asosida) /“Tarixiy manbashunoslik, tarixnavislik, tarix tadqiqotlari metodlari va metodologiyasining dolzarb masalalari” mavzuidagi Respublika XIII ilmiy-nazariy konferensiyasining ilmiy materiallari. Toshkent, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021 yil.-B. 378-383.
18. Qorayev Sh. Mir Kamoliddin Husayn Gozurgohiy samo' yig'inlari va Alisher Navoiy// “Sanduvoch”, Qarshi. 2021 yil 20 avgust. №15(448).-B.4.
19. Qorayev Sh. Raqsu samo' yig'inlari. –Qarshi: Intellect, 2023.-B.52.
20. <https://www.old.islamonline.uz/index.php/item5-navoiy>.